

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND AHOLISI TARIXINING O'RGANILISHI

(STUDY OF THE HISTORY OF THE POPULATION OF SAMARKAND
AT THE END OF THE 19TH CENTURY AND THE BEGINNING
OF THE 20TH CENTURY)

Islomov Davron

*O'zbekiston-Finlandgiya pedagogika instituti
Ijtimoiy gumanitar kafedrasi assistenti
davronislamov0@gmail.com*

Annatatsiya

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarkand viloyati aholisi tarixining o'rganilish tarixi, tarixshunosligi, manbalari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, hudud aholisining soni, milliy tarkibi va boshqa ma'lumotlar berilgan.

Annotation

This article provides information about the history, historiography, and sources of the history of the population of Samarkand region at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. Also, the number of inhabitants of the region, national structure and other information are given.

Kalit so'z: aholi ro'yxati, tarixiy demografiya, statistika boshqarmasi

Key words: population census, historical demography, statistical office

Samarqand O'rta Osiyoning qadimiy shaharlari orasidagina emas, balki butun jahondagi qadimiy shaharlar orasida ham o'ziga mos o'rinni egallaydi. Bejiz emaski, ko'plab tarixshunoslari uni "Yer yuzinig sayqali", "Sharq rimi", "Qadimgi Sharq jannati" kabi ajoyib nomlar bilan atashgan. 2750 yillik yubuleyini nishonlagan Samarqand shahari aholisining tarixnavisligini va manbashunosligini o'rganish dolzarb vazifadir.

Tarixiy demografiyaga doir adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadikim, faqatgina XIX asrning oxirlariga kelib Samarqand shahar aholisi haqida maqola va asarlar yozilishi ko'paydi. 1874-yilda L.N.Sobolevning "Zarafshon okrugi va uning geografik, statistik malumotlari to'g'risida" asari bosilib chiqdi. Bu asarda Zarafshon vohasining tabiiy sharoiti, hududi, Zarafshon okrugi uezdlari, ekin maydonlari, suv inshoatlari, shu bilan birga okrug qishloqlari aholisi va shunga o'xshash ma'lumotlar yoritilgan. 1895-yildan boshlab nashr etila boshlangan "Samarqand oblast yilnomaso'rovnama" kitobida ham ushbu hududning ma'muriy bo'linishi, tabiiy sharoiti, shu bilan birga aholining soni, milliy tarkibiga doir ba'zi ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari aholishunoslik haqidagi ma'lumotlar quyidagi manbalarda ham o'z aksini topa bordi. Mahalliy aholi harakatini ro'yxatga olish uchun 1888- yildan to 1890-yilgacha Samarqand viloyati statistika boshqarmasi bog'ichli bosma daftarlар taylorlangan. Bu daftarlarga aholi tarkibida tug'ilganlar va o'lganlarni, nikohdan o'tganlar haqidagi statistik ma'lumotlar rus va o'zbek tillarida chop etilishi yo'lga qo'yilgan. Daftarlarga asoslanib uezd mustamlaka ma'muriyatining bizga yetib kelgan ma'lumotlariga ko'ra 1891-yilning 1- yanvarigacha Samarqand viloyati aholisining tarkibi quyidagicha bo'lgan; erkaklar -464014, ayollar -317910, jami aholi 781924 kishidan iborat bo'lgan.

Ma'lumki, 1897-yilda Turkiston tarixida birinchi marta aholi ro'yxati tuzish tadbirdi o'tkazildi. Bu aholi ro'yxati XIX asr Samarqand shahri aholisi tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ro'yxatda shahar aholisining soni, milliy tarkibi haqida ancha to'liq ma'lumotlar berilgan. Manbada ko'rsatilishicha, Samarqand viloyati aholisi 857847 kishidan iborat bo'lib, shundan erkaklar -472915, ayollar - 384932 kishidan iborat bo'lgan. Jumladan, shaharlar aholisi esa 135568 kishini (umumiyligi miqdorning 15%) tashkil etgan. Viloyat aholisining 68% o'zbeklar, qolgan aholining asosiy qismi qozoqlar va tojiklardan iborat bo'lib, boshqa millat vakillari ham ko'p bo'lgan.

Tadqiqotchi M.M.Virskiy 1906-yilda "Sipisok naselennix mest Samarqand oblasti" nomli kitobni nashr qildi. Mana shu asar XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Samarqand shahar aholisi haqida batafsil ma'lumot berilgan dastlabki asarlardan biri bo'lib hisoblanadi.

XX asrning dastlabki o'n yilliklarida O'zbekiston aholishunosligi muammolariga bag'ishlab M.C.Andreyev, I.I.Zarubin, I.Magidonovich kabilar o'z asarlarini yozdilar. Chunonchi, I.I.Zarubinning 1926 yili "Samarqand viloyatining aholisi" nomli kitobi nashr etilib, unda 1926 yilgi davlat tomonidan o'tkazilgan aholi ro'yxati materiallari asosida Samarqand viloyatida istiqomat qiluvchi aholining nafaqat soni balki, etnik tarkibi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Shunday qilib, tarixshunoslikni qiyosiy tahlil bilan statistik ma'lumotlarga solishtirib, Samarqand shahar aholisi tarixini o'rganadigan bo'lsak, aholishunoslikning eng muhim manbasi bu davlat tomonidan o'tkazilgan aholi ro'yxatlarini tuzish va uning natijalarini ilmiy o'rganish ekanligiga guvoh bo'lamicha.

XIX asr oxiri va umuman XX asrda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari orqali Samarqand shahar aholisini to'liq o'rganish mumkun. Aholi ro'yxati natijalariga asoslanib, Samarqand shahar aholisi 1865-yili 26 ming, 1897-yil 55 ming, 1939-yil 136 ming, 1959-yil 196 ming, 1970-yil 267 ming, 1979-yil 346 ming, 1989-yil 366 ming, 2004-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra 383,3 ming kishini tashkil etganligini haqiqatga yaqin sonlar deb hisoblash va haqiqatga yaqin deb etirof etsa bo'ladi.

Hozirgi davrda Samarqand shahri aholisining asosiy qismini o‘zbeklar, tojiklar va eronilar (Marv shahri va vohasining qadimgi, turkiy zabon, shia aholisi, XVIII asr oxirlarida bu hududga ommaviy ravishda ko‘chirilgan) tashkil etadi.

Samarqand aholi soniga ko‘ra respublikamizning an’anaviy ikkinchi shahri va unung dastlabki poytaxti hisoblanadi. Hozrda aholi soniga ko‘ra (2022 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 4 312 099 kishi) Samarqand viloyati respublikada birinchi o‘rinda turadi. Shundan kelib chiqib hududning aholisi soni kundan kunga ortib boryotganligini ko‘rishmiz mungkin.

Xullas, Samarqand aholisi tarixshunosligi va manbashunosligini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu sohada bajarilgan ishlarni tarixiy demografiya fani talablariga ko‘ra to‘liq va etarli deb bo’lmaydi. Kelgusida tarixiy demografiya fani usullaridan ham foydalanib, Samarqand aholisi tarixi muammolarini yanada chuqurroq o‘rganish dolzarb ilmiy masala bo’lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. “Aholini ro’yxatga olish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining qonuni. 2020 yil 16- mart O’RQ-611-son
2. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. – Toshkent “O’zbekiston” 2016 yili 56 bet
3. Л.Н.Соболев Зеравшанском округе списка населенных мест округа. Санктпетербург 1874-yil.
4. M.M. Virskiy “Sipisok naseleñnix mest Samarcandskoi oblasti” 1906-yil
5. I.I.Zarubinning “Samarcand viloyatining aholisi” “O’zbekiston” -Toshkent; 1926 yil